

**XORIJIY MAMLAKATLAR ARMIYALARINING QUROLLI MOJAROLARDA
QUROLLARNI QO'LLASH TAJRIBALARI****Темиров Б.Б.**

подполковник, ЧОТҚМБЮ Қуrollаниш ва отиш кафедраси катта ўқитувчиси

Завқидинов М.М.ЧОТҚМБЮ 2-курсатлар баталони 3-вз **Завқидинов М.М.**

вод курсанти

Rossiya Federatsiyasi va Ukraina Respublikasi Qurolli kuchlari o'rtasida olib borilayotgan qurolli mojaralarda qurol-aslaha va jangovar texnikalarni qo'llash tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, har ikki tomon harbiy xizmatchilari qurol-aslaha va jangovar texnikalarni qo'llash bo'yicha ushbu urushga oldindan tayyorgarlik ko'rgan, lekin ayrim jihatlariga yetarli darajada e'tibor bermaganini ko'rsatdi.

Qurolli mojaralarda asosan sobiq SSSR va Rossiya Federatsiyasi hamda NATOga a'zo davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan qurol-aslaha va jangovar texnikalardan foydalanmoqda.

I. O'q otar qurollarni qo'llash natijalari.

Barcha turdagi bo'linmalar asosan o'q otar qurollar (avtomatlar: AK, AK-47, AKM, AKMS, AKMSN, AK-74, AKS-74, AKS-74N, AKS-74U, AK-102, 104, 105, AK-201, 202, 203, 204, 9A91; pulemyotlar: RPK-74, PK, PKM, PKMN; merganlik miltiqlari: SVD, SVDU, SVDS, OSV-96, VSK-94, VSS, UKROP UAR-10, TRG M-10; pistoletlar: PM, PMM, APS, PB, Glock-4) qurollangan bo'lib, ularni taktik miqyosidagi janglarning turli vaziyatlarda yaqin (100-200 m), o'rta (300-500 m) va uzoq (500-600 m) masofalarda dushmanning jonli kuchlari va o't ochish vositalarini yakson qilish hamda yaqin janglarda o'zini himoya qilish vositasi sifatida qo'llanilmoqda. Bir vaqtning o'zida bir harbiy xizmatchining bir-nechta qurollardan foydalanish malakasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda. Masalan, Rossiya Federatsiyasining avtomat bilan qurollangan muddatli harbiy xizmatchilari pistolet, pulemyot yoki merganlik miltiqlari bilan muomala qilish ulardan aniq va bexato o'q uzish ko'nikmalari shakllanmagan.

Har ikki tomon tunda dushman jonli kuchlarini qidirib topish va yakson etish uchun o'q otar qurollarning tungi ko'rish moslamalari va teplovizorlar keng qo'llamoqda, shuningdek, to'satdan dushmanga zarba berish va zudlik bilan o'z o't ochish pozitsiyasini o'zgartirish maqsadida avtomobilga o'rnatilgan ("bender-avtomobil", "jangovar motokolyaska") kichik va yirik kalibrdagi Maksim, NSV va DShKS rusumdagi pulemyotlardan faol foydalanmoqda.

Ukraina korxonalaridan ishlab chiqarilgan masofadan boshqariluvchi 7,62 mm kalibrdagi pulemyotlar o'rnatilgan jangovar robotlardan asosan shaxsiy tarkib uchun xavfli bo'lgan yo'nalishlarda, binolar ustidan va ko'cha janglarida qo'llanilmoqda.

Marinka shahri yaqinida bo'lib o'tgan janglarda tan olinmagan Dones Xalq Respublikasi harbiylari Ukraina armiyasi merganini yo'q qilishga erishdi. U AQShda ishlab chiqilgan yarim avtomatik ravishda ishlovchi UKROP UAR-10 rusumdagi merganlik miltig'idan foydalanganligi aniqlangan. E'tiborli jihati shundaki, ushbu mergan 7,62x51 mm parchalanuvchi (ekspansiv) o'qlar qo'llagan, xalqaro konvensiyaga asosan bunday o'qlardan foydalanish taqiqlangan.

Ukraina prezidenti V.Zelenskiy tomonidan har bir Ukraina va chet el fuqarolari qurolga egalik qilish va qo'llashga ruxsat berish bo'yicha qonun imzolanganidan so'ng tinch aholi orasidan ko'ngilli otryadlari tuzilib shaharlarni mudofaa qilishga jalb etilgan fuqarolarga o'q otar qurollar (avtomat, pulemyotlar va turli granatomyotlar, ov qurollari) tarqatildi va ularni bevosita janglar davomida qurol-aslahalardan foydalanishga o'rgatib kelmoqdalar. Fuqarolar tomonidan qurol-aslahalardan foydalanishga o'rgatish davomida xavfsizlik qoidalari buzilishi natijasida, ko'ngillilar tomonidan jarohat olish holatlari kuzatilmoqda.

II. Tankka qarshi boshqariladigan raketalarni qo'llash natijalari.

Tomonlar zirhlangan jangovar texnikalarga qarshi kurash davomida nisbatan yengil bo'lgan qo'l va dastgohga o'rnatilgan granatomyotlar RPG-7, RPG-18, RPG-22, SPG-9, AGS-17 (30), tankka qarshi boshqariladigan raketa majmualari (keyingi o'rinlarda TQBR) 9M111, 9M113, 9M115, FGM-148 Javelin, "Stugna", "Korsar"lardan keng foydalanmoqda. Shuni alohida qayd etish lozimki, Ukraina armiyasining jangovar qudratini oshirish maqsadida AQSH tomonidan joriy yilning yanvar-fevral oylarida FGM-148 Javelin (1-rasm) tankka qarshi raketa majmualarining 1500 dona uchirish qurilmasi va unga 5000 dona raketa qabul qilib oldi va hozirda ulardan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmaga ega bo'lib bormoqda. Ushbu raketa majmualari bilan Ukraina armiyasining 30 ta jangovar brigadalarini qurollantirishni amalga oshirdi. Javelin rusumidagi tankka qarshi raketa majmuasi dunyoda eng samarali olib yuriladigan raketa majmualaridan biri sanaladi.

Bundan tashqari, Ukraina armiyasi dushmanning zirhli texnikalari bilan kurashish uchun 2000 donadan ziyod Shvesiya va Britaniya hamorligida ishlab chiqarilgan "NLAW" rusumdagi tankka qarshi boshqariladigan raketalarini qabul qilib oldi va ularni binolarning yuqori qavatidan turib dushman tanklarini ustki tomonidan zarba berish amalga oshirilmoqda.



Ukraina tomoni ulardan foydalanish guruhlar tarkibida pistirmadan turib Rossiya Federatsiyasining zirhli texnikalar

1-rasm. Ukraina harbiylari FGM-148 Javelin rusumdagi TQBR qabul qilmoqda

kolonnasiga to'satdan zarba berib, so'ngra zudlik bilan o'z pozitsiyasini o'zgartirish bilan birga keyinchalik o'q otar qurollardan shaxsiy tarkibga talofat yetkazish amalini qo'llamoqda. Lekin, aksariyat hollarda granatomyotlardan otilgan o'qlar bilan nishonni yakson etish imkonini bermagani ko'rinadi.

Rossiya Federatsiyasining muddatli harbiy xizmatchilariga ikkinchi qurol sifatida berilgan RPG-22 "Muxa" rusumdagi yengil tankka qarshi granatomyotlarni jangovar holatga keltirish, mo'ljalga olish va o'q uzishda yetarli malakalarga ega emasligini ko'rsatmoqda. Mariopl shahar ko'chalaridan birida bo'lgan janglarda muddatli harbiy xizmatchilarni

yo'riqchilar tomonidan bevosita o'q uzishdan oldin o'rgatayotganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Ayniqsa, shahar va aholi yashash punktlarida (keyingi o'rinlarda a.ya.p) qo'l va dastgohga o'rnatilgan granatomyotlardan faol foydalanmoqda. AGS-17 (30) rusumdagi granatomyotlardan 800-1000 metrgacha masofada qishloq joylaridagi ko'chalar va uylarda joylashgan dushmanning jonli kuchlarini yakson etish hamda ulardan siqib chiqarish uchun qo'llanilib, ayni vaqtda o'z harbiy xizmatchilarining hayoti va sog'ligini saqlab qolishga erishmoqdalar. Lekin, ushbu granatomyotdan foydalanishda unga otish uchun zarur bo'lgan dastlabki o'rnatmalar kiritish va otish davomida tuzatmalar kiritishga yetarli ahamiyat bermaganliklari sababli otilgan granatalar harbiy xizmatchilar pozitsiyalariga emas balki, boshqa ob'ektlarga talofat yetkazilishiga olib kelmoqda.

Kiev yaqinidagi Gostomel aerodromi uchun kechgan janglarda har ikki tomon ham avtomatlarga o'rnatilgan GP-25, GP-30 rusumdagi stvol osti va 6G30 revolverli granatomyotlaridan foydalandi. Ushbu granatomyotlar baland binolar ichidagi, to'siqlar ortidagi va ochiq maydondagi dushmanning jonli kuchlarini yakson etishda yaxshi samara berdi, lekin shaxsiy takibning yetarli ko'nikmalari bo'lmaganligi o'q-dorilar sarfini oshirishga olib keldi.

Janglar davomida Rossiya va Ukraina harbiylari tomonidan ularning imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanmaganini ko'rish mumkin.

O'q otar qurollar ta'siri natijasida ishdan chiqqan jangovar texnikalarni to'liq o'q-dori jamlanmasi bilan qo'zg'almas o'q otish nuqtasi sifatida foydalanish tajribasi yo'lga qo'yilmagan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, qarama-qarshi kurashayotgan tomonlar Quruqlikdagi qo'shinlarining qurol-aslahalar va jangovar texnikalarni qo'llash bo'yicha quyidagi o'ziga xos tomonlarini belgilashimiz mumkin:

Rossiya Federatsiyasi:

havo-desant, desant-ishg'ol, masus operatsiyalar kuchlari, razvedka va motoo'qchi hamda boshqa qo'shin turlarining bo'linmalari asosan oddiy o'q otar, granatomyot va jangovar mashina qurollari bilan qurollangan;

raketa, aviatsiya va artilleriya zarbalari berilishiga qaramasdan taktik miqyosida shahar va a.ya.p qo'lga kiritishda o'q otar qurollar, granatomyot va jangovar mashinalar qurollari asosiy o't ochish vositalari bo'lib qolmoqda;

o'q otar qurollar harbiy xizmatchilarning asosiy shaxsiy quroli bo'lib yaqin janglarda jangovar vazifalarni bajarishning asosiy vositasi vazifasini bajarmoqda;

jangovar texnikalarning dushman granatomyotlarining to'g'ridan-to'g'ri o't ochish ta'siridan himoya qilish hamda ularning harakatchanligini oshirish choralari ko'rildi;

Ukraina Respublikasi:

Ukraina Respublikasi harbiy xizmatchilari tomonidan respublika korxonalarida ishlab chiqilgan va modernizatsiya qilingan hamda sobiq SSSR va NATOga a'zo davlatlarning qurol-aslahalari va jangovar texnikalaridan foydalanmoqda;

tungi va ko'rinish cheklangan vaziyatlarda aniq mo'ljalga olish va bexato o'q uzish jarayonida zamonaviy teplovizorlar qo'llangan;

zixli texnikalarni yakson etish uchun TQBR qo'zg'almas o't ochish nuqtalari sifatida qo'llanishi samarali natijalar bermoqda;

hududiy mudofaa kuchlari safiga jalb eilgan maxalliy aholi vakillari va harbiy xizmatchilar tomonidan "partizanlar urushi" taktikasini qo'llagani sababli jangovar texnikalarni harakatchanligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi;

tinch aholi vakillarini qurol-aslahalar bilan muomala qilish va undan o‘q uzish bo‘yicha o‘qitish hamda amaliy ko‘nikmalarini oshirish bevosita janglardan oldin va janglar mobaynida amalga oshirildi;

dushman tomonidan nosozlik tufayli tashlab ketilgan jangovar texnika va qurol-aslahalardan samarali foydalanish yo‘lga qo‘yildi.

Foydalanilgan manbalar:

1.Shuhrat Rasul. Rossiya va Ukraina urushi bugun. Shuhrat Rasul. –Режим доступа: <http://www.youtube.com/@Fikruz>. Vaqti: 20.07.2023 y.

2.Cyberleninka.Rossiyaning Ukrainaga bosqini. [http://cyberleninka.ru /article/n/rossiyaning-ukrainaga-bosqini](http://cyberleninka.ru/article/n/rossiyaning-ukrainaga-bosqini). Vaqti: 05.06.2023 y.

3.Shuhrat Rasul. Rossiya va Ukraina urushi kecha va bugun. Shuhrat Rasul. –Режим доступа: <http://www.youtube.com/@Fikruz>. Vaqti: 29.06.2023 y.

4.m.dv.com (2022) Russia launches massive invasion of Ukraine- as it happened Available <http:// M.dv.com/ Russia-launches-massive-invasion-of-Ukraine-as-it- happened/a-6089358> (accessed:22.06.2023 y)